



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI  
BANK OPERATSIYALARI METODOLOGIYASI BOSHQARMASIDA  
RO‘YXATDAN O‘TKAZILDI**

**2025 yil 19 noyabr  
711-son**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki boshqaruvining**

**““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tizimida  
qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo‘yicha ta’minot  
sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma-bosqich  
garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish  
tartibi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”**

**QARORI**



## **“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI BOSHQARUVI Q A R O R I**

### **““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tizimida qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo‘yicha ta’minot sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma-bosqich garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish tartibi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 3/6-son qarori (2000 yil 5 aprel, ro‘yxat raqami 916) bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom”ga muvofiq “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bank boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tizimida qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo‘yicha ta’minot sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma-bosqich garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan hujjat Bank ichki normativ hujjatlari reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

**Boshqaruv raisi**

**S.Normuxamedov**

Toshkent shahri,  
2025 yil 19 noyabr,  
PR178-son.

|                                                        |                  |
|--------------------------------------------------------|------------------|
| <i>Boshqaruv a'zolari bilan kelishildi:</i>            |                  |
| Boshqaruv raisi o'rinbosari                            | K.Gabbazov       |
| Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori | A.Mamatkulov     |
| Strategik rivojlanish departamenti direktori           | S.Urmanova       |
| Iqtisodiy tahlil va statistika departamenti direktori  | M.Muxammedyarova |
| G'aznachilik departamenti direktori                    | J.Usmonaliyev    |
| Komplaens-nazorat departamenti direktori               | B.Qambarov       |

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tizimida  
qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo‘yicha  
ta’minot sifatida qabul qilingan garov mulkini  
bosqichma-bosqich garovdan ozod qilish  
yoki garov mulkini almashtirish  
TARTIBI**

Muqaddima

- 1-§. Umumiy qoidalar
- 2-§. Qarzdor/mijoz (garovga qo‘yuvchi) murojaati (arizasi), unga ilova qilinadigan hujjatlar
- 3-§. Garov mulkini garovdan ozod qilish yoki almashtirish shartlari
- 4-§. Kredit ta’minoti sifatida qabul qilingan mulkni garovdan ozod etish
- 5-§. Kredit bo‘yicha qabul qilingan garov mulkini boshqa ta’minotga almashtirish
- 6-§. Garovga qo‘yuvchi murojaatini (arizasini) ko‘rib chiqish va u bo‘yicha qaror qabul qilish muddatlari
- 7-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” va “Garov to‘g‘risida” qonunlari, “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida nizom” (*Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 2 iyulda 3030-son bilan ro‘yxatga olingan*) asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo‘yicha ta’minot sifatida qabul qilingan garov mulkini kreditning qoldig‘iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta’minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta’minotga almashtirish tartibini belgilaydi.

**1-§. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartibda quyidagi atamalar ishlatiladi:

**Bosh bank** – Bank boshqaruvi apparati;

**bank xizmatlari ofisi** – Bankning Amaliyot boshqarmasi va bank xizmatlari ofislari;

**kredit** tushunchasi kreditning o‘zidan tashqari moliyaviy lizing, faktoring, balansdan tashqari majburiyatlar (bank kafolati va kafilliklari), kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa pul operatsiyalarini, jumladan import kontrakti bo‘yicha maqsadli moliyalashtiriladigan akkreditiv operatsiyasini ham o‘z ichiga oladi;

**qarzdor/mijoz** – ajratilgan kredit bo‘yicha ta’minot sifatida qabul qilingan garov mulkini kreditning qoldig‘iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta’minotni garovdan ozod qilishni yoki garov mulkini boshqa ta’minotga almashtirishni so‘rab bank xizmatlari ofisiga (vakolatli bank xizmatlari markaziga) yozma (elektron) murojaat qilgan yuridik shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor,

jismoniy shaxs);

**garovga qo'yuvchi** – qarzdorga/mijozga ajratilgan kreditning ta'minoti sifatida o'z mulkini garovga taqdim etuvchi shaxs. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq garovga qo'yuvchi sifatida qarzdor/mijoz ham, uchinchi shaxs maqomidagi yuridik shaxs /jismoniy shaxs ham bo'lishi mumkin;

**Garov reestri** – qarzdorlar/mijozlar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida garovga qo'yilgan mulkka nisbatan Bankning (kreditorning) huquqlari to'g'risida, shuningdek qarzdorning/mijozning mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor/mijoz o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqida yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi;

**Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi** – bank xizmatlari ofisining Kreditlash bo'limi va Chakana biznes bo'limi bo'lib, u tegishliligi bo'yicha qarzdorning/mijozning (garovga qo'yuvchining) kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma bosqich garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish bo'yicha murojaatini (arizasini) o'rganib chiqadi, xulosa (bildirishnoma) tayyorlaydi va uni Bank xizmatlar ofisi kredit komissiyasi (anderreyter) muhokamasiga kiritadi, murojaat (ariza) bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganda tegishli amaliyotlar bajarilishini ta'minlaydi;

**Bosh bankning kreditlash bo'linmasi** – Bosh bankning Kreditlash departamenti, Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va loyihalarni boshqarish markazi, Loyihalarni xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish boshqarmasi hamda Chakana biznes departamenti bo'lib, u kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma bosqich garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish bank xizmatlari ofisi murojaatini tegishliligi bo'yicha Bosh bank kredit komissiyasining yoki Bank kuzatuv kengashining muhokamasiga kiritish uchun o'rganib chiqadi, xulosa (bildirishnoma) tayyorlaydi va Bosh bank kredit komissiyasi (Bankning kuzatuv kengashi) muhokamasiga kiritadi, murojaat (ariza) bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganda bank xizmatlari ofisi tomonidan tegishli amaliyotlar bajarilishini nazorat qiladi;

**xulosa (bildirishnoma)** – kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish haqidagi qarzdorning/mijozning yozma (elektron) murojaati (arizasi) asosida Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xodimi va boshlig'i (vakolatli bank xizmatlari markazining kredit mutaxassisi va bank xizmatlari markazi boshlig'i) tomonidan tayyorlangan va imzolangan, Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida (anderrayterda) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etilgan hujjat. Agar ajratilgan kredit Bosh bank kredit komissiyasi (Bankning kuzatuv kengashi) tomonidan ma'qullangan bo'lsa, kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini

kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini almashtirish masalasini dastlabki bosqichda ko'rib chiqqan Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasining qarori va ushbu masalaga tegishli hujjatlar Bosh bankka taqdim etilgandan so'ng xulosa (bildirishnoma) Bosh bankning kreditlash bo'linmasi xodimi tomonidan tayyorlanadi, Bosh bankning kreditlash bo'linmasi rahbari, uning o'rinbosarlari, mas'ul ichki tarkibiy tuzilma boshlig'i hamda uni tayyorlagan xodim tomonidan imzolanadi va Bosh bank kredit komissiyasida (Bankning kuzatuv kengashida) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etiladi.

2. Kredit muddati davomida qarzdorning/mijozning yoki garovga qo'yuvchining yozma (elektron) murojaatiga (arizasiga) ko'ra, Bankning kredit siyosatiga muvofiq, garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilishga yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirishga ruxsat beriladi.

3. Kredit bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilingan garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish faqat taraflar (bank, qarzdor/mijoz, garovga qo'yuvchi) kelishuviga ko'ra mumkin.

## **2-§. Qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) murojaati (arizasi), unga ilova qilinadigan hujjatlar**

4. Qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) ajratilgan kredit bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilingan garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqidagi yozma (elektron) murojaatini (arizasini) quyidagi tartibda taqdim etilishi mumkin:

a) bevosita bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) devonxonasiga topshirish;

b) UzPost orqali qog'oz shaklida jo'natish;

d) Bankning rasmiy telegram-kanaliga ([t.me/trustbank.uz](https://t.me/trustbank.uz)) yuborish;

e) Bankning elektron pochta (info@trustbank.uz) yuborish.

5. Qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) murojaatida (arizasida) quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

a) oluvchi [bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) nomi va rahbari];

b) qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) haqida ma'lumotlar: xo'jalik yurituvchi subyekt nomi, yuridik manzili, STIR, rahbarning ismi va familiyasi, elektron pochta manzili (jismoniy shaxs bo'lsa: ismi, otasining ismi va familiyasi, yashash manzili, pasport ma'lumotlari, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili);

d) murojaatni (arizani) ko'rib chiqish natijasi bo'yicha Bankdan javob olishning afzal usuli: Call-markaz xodimining qo'ng'irog'i, SMS-xabarnoma, qog'ozga yozilgan javob, rasmiy

t.me/trustbank.uz rasmiy telegram-kanalidan elektron xat;

e) garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish so'ralganda – asoslash (hisob-kitob), olingan kredit haqida axborot (kredit shartnomasining raqami va kredit olingan sana, ariza berilgan sanaga to'langan asosiy qarz va foiz qiymati), garovdan ozod qilish so'ralgan mulk haqida ma'lumot (nomi, miqdori, joylashgan yeri, identifikatsiya belgilari);

f) garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish so'ralganda – garovdan chiqarish so'ralgan mulk haqida ma'lumot (asoslash, nomi, miqdori, joylashgan yeri, identifikatsiya belgilari), yangi garov predmetini rasmiylashtirish uchun taklif etilayotgan mulk haqida ma'lumot (nomi, miqdori, joylashgan yeri, identifikatsiya belgilari, baholavchi tashkilot hisoboti) yoki boshqa turdagi ta'minot xususiyatlarining tavsifi.

6. Garov mulki boshqa ta'minotga almashtirilganda, qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) murojaatiga (arizasiga) ilova qilinadigan hujjatlar quyidagicha belgilanadi:

a) garovga qo'yuvchi jismoniy shaxs bo'lsa – ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha ta'minot qabul qilish tartibi to'g'risida nizom”ning (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 17 fevraldagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 17 fevralda 686-son bilan ro'yxatga olingan*) 1-ilovasi asosida;

b) garovga qo'yuvchi yuridik shaxs bo'lsa – ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga beriladigan kreditlar bo'yicha ta'minot qabul qilish tartibi to'g'risida nizom”ning (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 20 oktabrdagi 109-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 27 oktabrda 707-son bilan ro'yxatga olingan*) 1-ilovasi asosida.

Qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) murojaatiga (arizasiga) hujjatlar asl nusxasini skanerlash orqali olingan hujjatlarning qog'ozdagi nusxalarini yoki elektron versiyalarini ilova qilishga yo'l qo'yiladi, keyinchalik Bankning so'roviga ko'ra hujjatlarning asl nusxasi taqdim etilishi shart.

7. Qarzdor/mijoz (garovga qo'yuvchi) murojaati (arizasi) Bankning elektron hujjat aylanish tizimida ro'yxatdan o'tkaziladi.

8. Qarzdorning/mijozning (garovga qo'yuvchining) yozma (elektron) murojaati (arizasi), unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga, Bankning elektron hujjat aylanish tizimi orqali Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasiga ijro etish uchun yuboriladi.

### **3-§. Garov mulkini garovdan ozod qilish yoki almashtirish shartlari**

9. Garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish masalasi Bankning kredit siyosatida belgilangan vakolat darajasidan kelib chiqib kredit ajratishni ma'qullagan tegishli organ (Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi, anderrayter, Bosh bank kredit komissiyasi, Bankning

kuzatuv kengashi) tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini bosqichma-bosqich garovdan ozod qilish va/yoki garov mulkini almashtirish kredit tavakkalchiligini oshirmasligi va qazdorlikning ta'minlanganlik darajasi pasaymasligi lozim.

11. Garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqidagi qarzdorning/mijozning yoki garovga qo'yuvchining yozma (elektron) murojaati (arizasi) quyidagi hollarda Bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi:

a) murojaat (ariza) qabul qilingan sanada qarzdorning/mijozning amaldagi kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa (kredit bo'yicha taqdim qilingan ta'minotni yaxshilash yoki kreditni qisman qoplash maqsadida garov mulkini garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish vakolat darajasiga ko'ra Bosh bank kredit komissiyasi va undan yuqori organlar qarori bilan amalga oshiriladi);

b) garov mulkini garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish taklif etilayotgan kredit "qoniqarsiz" yoki "shubhali" yoxud "umidsiz" toifaga tasniflangan bo'lsa (kredit bo'yicha taqdim qilingan ta'minotni yaxshilash yoki kreditni qisman qoplash maqsadida garov mulkini garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish vakolat darajasiga ko'ra Bosh bank kredit komissiyasi va undan yuqori organlar qarori bilan amalga oshiriladi).

12. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulki garovdan ozod etilganda yoki garov mulki almashtirilganda ta'minotning qolgan qismi kredit qoldig'ining kamida 125 foizini qoplashi shart.

Bunda kredit qarzdorligi qoldig'i quyidagicha hisobga olinadi:

a) milliy valyutada ajratilgan kreditning qoldig'i hamda ishlatilmagan qismidan kelib chiqib;

b) Bosh kredit kelishuvi doirasidagi amaldagi barcha individual kreditlar qoldig'i, Bosh kredit kelishuvining ishlatilmagan qismi va Bosh kredit kelishuvining kamayish jadvalidan kelib chiqib;

d) chet el valyutasida ajratilgan kreditlar (jumladan Bosh kredit kelishuvi doirasida chet el valyutasida ajratilgan individual kreditlar) bo'yicha qarzdorning/mijozning yoki garovga qo'yuvchining yozma (elektron) murojaati (arizasi) va kreditning oxirgi qaytarish sanasi orasidagi farq bir yildan ko'p bo'lsa, kredit qoldig'iga devalvatsiya koeffitsiyenti qo'llaniladi;

e) Bosh kredit kelishuvi chet el valyutasida tuzilgan bo'lsa, qarzdorning/mijozning yoki garovga qo'yuvchining yozma (elektron) murojaati (arizasi) olingan paytga Bosh kredit kelishuvining oxirgi qaytarish sanasi bir yildan ko'p bo'lsa (garov mulkini garovdan ozod qilishda Bosh kredit kelishuvi limitining kamayishi boshlangan bo'lishi lozim) Bosh kredit kelishuvi



qoldig'iga (moliyalashtirish limitiga) devalvatsiya koeffitsiyenti qo'llaniladi.

13. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi o'z vakolati doirasida berilgan kreditning so'ndirilgan qismiga mos garov mulkini yoki qismini garovdan ozod qilish bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi. Agar kredit bo'yicha bir nechta garov mulki ta'minot sifatida qabul qilingan bo'lsa, garov mulkini garovdan ozod qilish quyidagi ketma-ketlik ustivorligida amalga oshiriladi (yuqori ustivorligidan kelib chiqib):

- a) muomaladagi tovarlar;
- b) asbob-uskunalar;
- d) yengil avtotransport toifasiga kirmaydigan avtomobillar, maxsus texnikalar;
- e) yengil avtotransport vositalari;
- f) ko'chmas mulk;
- g) pul mablag'i.

Bunda garov mulklarining likvidlilik holati va ishlab chiqarilgan yili inobatga olinadi.

14. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasining vakolati doirasida berilgan kredit bo'yicha garov mulkini garovdan ozod qilish yoki almashtirish quyidagi hollarda Bosh bank kredit komissiyasi ruxsati bilan amalga oshiriladi:

- a) kredit bo'yicha qabul qilingan garov mulkini boshqa mulkka almashtirish;
- b) kredit bo'yicha bir necha ta'minot turi (garov mulki, uchinchi shaxs kafilligi, kredit qaytarilmasligi tavakkalchiligini sug'urtalash bo'yicha sug'urta polisi va boshqalar) qabul qilinganda, garov mulkini garovdan ozod qilish;
- d) kredit bo'yicha qabul qilingan garov mulkini garovdan ozod qilishning ushbu Tartibning 13-bandida qayd etilgan ketma-ketligi o'zgarganda.

Kredit bo'yicha qabul qilingan ta'minot turi almashtirilganda ushbu kredit shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktiv deb hisoblanadi va u bo'yicha "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom" (Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan) asosida tegishli amaliyotlar bajariladi.

#### **4-§. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni garovdan ozod etish**

15. Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi mas'ul xodimi tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) garovga qo'yuvchining kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni garovdan ozod etish haqidagi murojaati (arizasi) va unga ilova qilingan hujjatlar Bankning elektron hujjat aylanish tizimi orqali qabul qilinadi (*hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, ularda shubhali ma'lumotlar mavjud bo'lganda yoki ayrim hujjatlar yetishmasa, kamchiliklarni yozma bayon etgan holda, hujjatlarni garovga qo'yuvchiga qaytarib yuborishga haqli hisoblanadi*);

- b) Kredit byurosidan qarzdorning/mijozning kredit tarixiga oid ma'lumotnoma olinadi;
- d) kredit ta'minotiga bir nechta mulk garovga olingan bo'lsa, ta'minot sifatida qolayotgan mulkka oid Garov reestridan ma'lumotnoma olinadi, ushbu mulkka nisbatan boshqa tashkilotlarda taqiq mavjud emasligi tekshiriladi;
- e) qarzdor/mijoz daromadi uning kredit bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lovlari yuzasidan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga yetarliligi aniqlanadi;
- f) kreditning tavsifi o'rganiladi;
- g) kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi tekshiriladi;
- h) kredit ta'minoti sifatida qoladigan mulkning qoplash darajasi hisoblanadi;
- i) amalga oshirilgan tahlil asosida xulosa (bildirishnoma) tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;
- j) xulosa (bildirishnoma), garovga qo'yuvchining murojaati (arizasi), unga ilova qilingan hujjatlar va kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni garovdan ozod etish loyihasiga oid hujjatlarning to'liq to'plami Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida (anderrayterda) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etiladi.

16. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi (anderrayter) o'z vakolati doirasida kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini garovdan ozod etish yoki garov mulkini garovdan ozod qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

17. Agar kredit ajratishni Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasidan yuqori turuvchi organ ma'qullagan bo'lsa, garovga qo'yuvchining garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish haqidagi murojaati (arizasi), Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xulosasi (bildirshnomasi), Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasining qarori, Bosh bank kreditlash bo'linmasi xulosasi (bildirshnomasi) asosida kredit ajratishni ma'qullagan tegishli organ (Bosh bank kredit komissiyasi, Bankning kuzatuv kengashi) tomonidan ko'rib chiqiladi.

18. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini garovdan ozod etish masalasi bo'yicha tegishli organ tomonidan ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng, Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xodimi tomonidan quyidagi amaliyotlar amalga oshiriladi:

- a) garov mulkning garovdan ozod etilishi haqida kredit va garov shartnomalariga o'zgartirishlar kiritish haqida qo'shimcha bitim loyihasi tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;
- b) IABS dasturida: 94502-balansdan tashqari hisobvaraqda tegishli amaliyotlar o'tkaziladi, kredit kartochkasining ta'minot qismiga o'zgartirish kiritiladi;
- d) Garov reestridagi yozuvlarga o'zgarishlar kiritiladi.

#### **5-§. Kredit bo'yicha qabul qilingan garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish**

19. Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi mas'ul xodimi tomonidan quyidagilar

amalga oshiriladi:

a) garovga qo'yuvchining Kredit bo'yicha qabul qilingan garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqidagi murojaati (arizasi) va unga ilova qilingan hujjatlar Bankning elektron hujjat aylanish tizimi orqali qabul qilinadi (*hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, ularda shubhali ma'lumotlar mavjud bo'lganda yoki ayrim hujjatlar yetishmasa, kamchiliklarni yozma bayon etgan holda, hujjatlarni garovga qo'yuvchiga qaytarib yuborishga haqli hisoblanadi*);

b) Kredit byurosidan qarzorning/mijozning kredit tarixiga oid ma'lumotnoma olinadi;

d) kredit ta'minotidan chiqarilayotgan garov mulki va uning o'rniga kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan yangi mulk bo'yicha Garov reestridan ma'lumotnoma olinadi, ushbu mulklarga nisbatan boshqa tashkilotlarda taqiq mavjud emasligi tekshiriladi;

e) qarzdor/mijoz daromadi uning kredit bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lovlari yuzasidan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga yetarliligi aniqlanadi;

f) kreditning tasnifi o'rganiladi;

g) kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi tekshiriladi;

h) kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan yangi mulkning qoplash darajasi hisoblanadi;

i) amalga oshirilgan tahlil asosida xulosa (bildirishnoma) tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;

j) xulosa (bildirishnoma), garovga qo'yuvchining murojaati (arizasi), unga ilova qilingan hujjatlar va kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni boshqa ta'minotga almashtirish loyihasiga oid hujjatlarning to'liq to'plami Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida (anderrayterda) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etiladi.

20. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi (anderrayter) kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni boshqa ta'minotga almashtirish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

21. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi tomonidan garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqidagi murojati (arizasi) va tegishli hujjatlar belgilangan tartibda kredit ajratishni ma'qullagan Bosh bank kredit komissiyasi (Bankning kuzatuv kengashi) tomonidan ko'rib chiqiladi.

22. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish masalasi bo'yicha tegishli organ tomonidan ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng, Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xodimi tomonidan quyidagi amaliyotlar amalga oshiriladi:

a) garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqida kredit va garov shartnomalariga o'zgartirishlar kiritish haqida qo'shimcha bitim loyihasi tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;

b) kredit bo'yicha yangi taqdim etilayotgan ta'minotga oid hujjatlarning garovga qo'yuvchi

tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini va bank xizmatlari ofisiga taqdim etilishni nazorat qiladi;

d) IABS dasturida: 94501 (94502, 94503)-balansdan tashqari hisobvaraqda tegishli amaliyotlar o'tkaziladi, kredit kartochkasining ta'minot qismiga o'zgartirish kiritiladi;

e) garovdan chiqarilgan mulkning va garov mulki sifatida yangi qabul qilingan mulkning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi tashkil etiladi;

f) Garov reestridagi yozuvlarga o'zgarishlar kiritiladi.

#### **6-§. Garovga qo'yuvchi murojaatini (arizasini) ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish muddatlari**

23. Garov mulkini kreditning qoldig'iga mutanosib ravishda qoldirib, ortiqcha ta'minotni garovdan ozod qilish yoki garov mulkini boshqa ta'minotga almashtirish haqidagi qarzdorning/mijozning yoki garovga qo'yuvchining yozma (elektron) murojaati (arizasi) bank xizmatlari ofisiga (vakolatli bank xizmatlari markaziga) rasman kelib tushgandan boshlab 15 bank ish kunida ko'rib chiqiladi.

Bunda qarzdorning/mijozning (garovga qo'yuvchining) murojaati (arizasi) quyidagi bosqichlarda ko'riladi:

a) bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

b) Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida (andarrayterda) ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

d) Bosh bank kredit komissiyasida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

e) Bankning kuzatuv kengashida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

f) murojaatga (arizaga) rad javobi berilganda qarzdorga/mijozga (garovga qo'yuvchiga) xabar berish muddati: 2 bank ish kuni.

#### **7-§. Yakuniy qoidalar**

24. Ushbu Tartib normalari ichki va tashqi omillarga doimo moslashtirib borilishi, o'zgartirilishi, aniqlik kiritilishi va takomillashtirilishi mumkin.

25. Bosh bankning Ichki audit departamenti Bosh bankda (bank xizmatlari ofisida) taftish o'tkazish paytida qarzdoga/mijozga ajratilgan kredit bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilingan garov mulkini garovdan ozod etishda yoki boshqa mulkka almashtirishda ushbu Tartibga amal qilinganligini tekshiradi.